BIOLOGIYA

UDK: 595.768.11(591.5) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a155**

O‘ZBEKISTON UZUNMO‘YLOV QO‘NG‘IZLARI (COLEOPTERA, CERAMBYCIDAE) NING TAKSONOMIK TAHLILI

ТАКСОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УСАЧЕЙ (COLEOPTERA, CERAMBYCIDAE) УЗБЕКИСТАНА

TAXONOMIC ANALYSIS OF LONGHORN BEETLES (COLEOPTERA, CERAMBYCIDAE) OF UZBEKISTAN

Ma’rupov Akmaljon Akbarovich[1]

[1]**Ma’rupov Akmaljon Akbarovich** – Farg‘ona davlat universiteti zoologiya va umumiy biologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlar O‘zbekistonning barcha hududlarda keng tarqalgan dendrofag zararkunanda hasharotlar bo‘lib, ularning 6 kenja oila, 20 triba, 34 urug‘ va 23 kenja urug‘ga mansub jami 86 tur hamda kenja turi qayd etildi. Uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlarning mazkur ro‘yxati O‘zbekiston uchun ilk marotaba tuzilgan bo‘lib, ushbu qo‘ng‘izlarning faunasi hamda tarqalishini o‘rganishda, shu bilan birga, zararkunanda turlarga qarshi kurashning samarali chora-tadbirlarini belgilashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Аннотация

Усачи - широко распространенные насекомые-дендрофаги во всех регионах Узбекистана, всего насчитывалось 86 видов и подвидов, относящихся к 6 подсемействам, 20 трибам, 34 родам и 23 подродам. Настоящий перечень усачей составлен впервые для Узбекистана и имеет важное значение для изучения фауны и распространения этих жуков, а также имеет большое научное и практическое значение при определении эффективных мер борьбы с вредителей.

Abstract

The longhorn beetles are widespread dendrophagous insects in all regions of Uzbekistan, and a total of 86 species and subspecies belonging to 6 subfamilies, 20 tribes, 34 genera and 23 subgenera were recorded. The current checklist of the longhorn beetles was compiled for the first time for Uzbekistan, and is of important for investigating the fauna and distribution of these beetles, as well as, is also of great scientific and practical importance in determining effective measures to fight against pest species.

Kalit so‘zlar: *uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlar, Farg‘ona vodiysi, tur tarkibi, dendrofag, zararkunanda turlar, ksilofag.*
Ключевые слова: *усачи, Ферганская долина, видовой состав, дендрофаги, виды вредителей, ксилофаги.*
Key words: *longhorn beetles, Fergana Valley, species diversity, dendrophagus, pest species, xylophage.*

KIRISH

Qattiqqanotlilar turkumi vakillari ayni vaqtda Yer yuzidagi ma’lum bo‘lgan hayvonlarning deyarli chorak qismini tashkil qiladi (Rossa & Goczal, 2021). Ushbu hasharotlarning xilma-xilligi, turli geografik mintaqalar bo‘ylab tarqalish qonuniyatlarini o‘rganish muhim bo‘lib, bu antropogen omil sabab biologik xilma-xillikni yoppasiga qirilib ketish davrida navbatdagi ishlarni rejalashtirishda kalit vazifasini o‘tashi mumkin (Ceballos *et al*., 2015). Uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlar (Cerambycidae) qattiqqanotlilarning eng yirik oilalaridan biri bo‘lib, ularning bugungi kunda 38000 dan ortiq turi mavjud (Tavakilian & Chevillotte, 2022). Ushbu qattiqqanotlilar oilasining Markaziy Osiyodagi faunasini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar yildan-yilga ortiq bormoqda. Jumladan, Tojikistonda ularning 60 turi uchrashi ma’lum bo‘lsa (Kadyrov *et al*., 2016), Qozog‘istonning jabuniy va sharqiy qismida ularning 78 turi qayd etilgan (Karpiński *et al*., 2018). O‘zbekiston hasharotlariga bag‘ishlangan bir qator ishlarda uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlar haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lsa-da (Yaxontov, 1962), lekin ularning mamlakat hududidagi umumiy tur soni borasida aniq ma’lumotlar mavjud emas.

Mazkur maqolada O‘zbekiston hududida uchrovchi uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlar tur sonini ularning yuqori taksonomik o‘rinlari bilan birgalikda keltirish maqsad qilib olingan.

MATERIAL VA METODIKA

O‘zbekiston hududidagi uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlarning tur tarkibini aniqlashda xalqaro e’tirof etilgan “Titan database on Cerambycidae or Longhorn beetles” (http://titan.gbif.fr/index.html), “Lamiines of the World” (https://lamiinae.org/about.html), “Cerambycidae: Subfamily Prioninae of

World” (http://www.cerambycidae.cz/home-page.html), “Catalogue of Palaearctic Chrysomeloidea (Vesperidae, Disteniidae, Cerambycidae)” (http://www.cerambycidae.net/) kabi kataloglardan hamda ular tarkibidagi yuzlab ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Bundan tashqari 2011-2023-yillar davomida Farg‘ona vodiysining 50 ga yaqin nuqtasidan yig‘ilgan namunalar uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlar tur tarkibini aniqlash uchun asos bo‘ldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qator rasmiy xalqaro kataloglar va adabiyotlar tahlili hamda shaxsiy kuzatuvlar asosida O‘zbekiston hududida uchrovchi uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlarning tur tarkibi quyida keltirilmoqda. Turlar ro‘yxati kenja oila, triba tarkibida alifbo tartibida berilgan.

Oila I. CERAMBYCIDAE Latreille, 1802

Kenja oila 1. APATOPHYSEINAE Lacordaire, 1869

Triba 1. Apatophyseini Lacordaire, 1869

1. *Apatophysis* (*Angustephysis*) *margiana* Semenov & Schegoleva-Barovskaya, 1936
2. *Apatophysis* (*Apatophysis*) *baeckmanniana* Semenov, 1907
3. *Apatophysis* (*Apatophysis*) *caspica* Semenov, 1901

Kenja oila 2. CERAMBYCINAE Latreille, 1802

Triba 2. Anaglyptini Lacordaire, 1869

4. *Anaglyptus bicallosus* (Kraatz, 1882)

Triba 3. Callichromatini Blanchard, 1845

5. *Turkaromia gromenkoi* Danilevsky, 2000

Triba 4. Callidiini Mulsant, 1839

6. *Ropalopus mali* Holzschuh, 1993
7. *Ropalopus nadari* Woodpecker, 1894
8. *Semanotus semenovi* Okunev, 1933
9. *Turanium* (*Chalcoturanium*) *johannis* Baeckmann, 1922
10. *Turanium* (*Turanium*) *hladili* Kratochvíl, 1985
11. *Turanium* (*Turanium*) *losi* Karpiński, Plewa & Hilszczański, 2021
12. *Turanium* (*Turanium*) *pilosum* (Reitter, 1891)
13. *Turanium* (*Turanium*) *scabrum* (Kraatz, 1882)

Triba 5. Cerambycini Latreille, 1802

14. *Trirachys sartus* (Solsky, 1871)

Triba 6. Clytini Mulsant, 1839

15. *Chlorophorus elaeagni* Plavilstshikov, 1956
16. *Chlorophorus faldermanni* Faldermann, 1837
17. *Chlorophorus navratili* Holzschuh, 1981
18. *Echinocerus floralis* (Pallas, 1773)

18.1. *Echinocerus floralis aulicus* (Laicharting, 1784)

19. *Rhaphuma gracilipes* (Faldermann, 1835)
20. *Xylotrechus* (*Turanoclytus*) *asellus* (Thieme, 1881)
21. *Xylotrechus* (*Turanoclytus*) *namanganensis* (Heyden, 1885)

Triba 7. Hesperophanini Mulsant, 1839

22. *Trichoferus campestris* (Faldermann, 1835)
23. *Turcmenigena warenzowi* Melgunov, 1894

Triba 8. Molorchini Mulsant, 1863

24. *Molorchus (Caenoptera) pallidipennis* Heyden, 1887
25. *Molorchus* (*Molorchus*) *schmidti* Ganglbauer, 1883
26. *Molorchus* (*Nathrioglaphyra*) *heptapotamicus* Plavilstshikov, 1940

Triba 9. Tillomorphini Lacordaire, 1869

27. *Cleroclytus semirufus* Kraatz, 1884

Triba 10. Trachyderini Dupont, 1836

28. *Anoplistes forticornis* Reitter, 1901

Kenja oila 3. LAMIINAE Latreille, 1825

Triba 11. Agapanthiini Mulsant, 1839

29.1. *Agapanthia* (*Epoptes*) *dahlii muellneri* Reitter, 1898

30. *Agapanthia* (*Epoptes*) *detrita* Kraatz, 1882
31. *Agapanthia* (*Epoptes*) *nigriventris* Waterhouse, 1889
32. *Agapanthia* (*Epoptes*) *parauliensis* Danilevsky, 2017
33. *Agapanthia* (*Epoptes*) *turanica* Plavilstshikov, 1930
34. *Agapanthia* (*Smaragdula*) *incerta* Plavilstshikov, 1930
35. *Agapanthia* (*Stichodera*) *soror* Kraatz, 1882
36. *Agapanthiola leucaspis* (Steven, 1817)

Triba 12. Dorcadionini Swainson & Shuckard, 1840

37. *Dokhtouroffia baeckmanni* (Jankowski, 1934)
38. *Dorcadion* (*Cribridorcadion*) *dokhtouroffi* Ganglbauer, 1886
39. *Dorcadion* (*Cribridorcadion*) *turkestanicum* Kraatz, 1881

Triba 13. Obereini Thomson, 1864

40. *Oberea* (*Amaurostoma*) *ruficeps* Fischer, 1842

Triba 14. Phytoeciini Mulsant, 1839

41. *Phytoecia* (*Fulgophytoecia*) *circumdata* Kraatz, 1882
42. *Phytoecia* (*Fulgophytoecia*) *pilosicollis* Holzschuh, 1981
43. *Phytoecia* (*Opsilia*) *bucharica* Breuning, 1943
44. *Phytoecia* (*Opsilia*) *transcaspica* Fuchs, 1955
45. *Phytoecia* (*Opsilia*) *varentzowi* Semenov, 1896
46. *Phytoecia* (*Parobereina*) *ochraceipennis* Kraatz, 1882
47. *Phytoecia* (*Phytoecia*) *acridula* Holzschuh, 1981
48.1. *Phytoecia* (*Phytoecia*) *pustulata pustulata* (Schrank, 1776)
48.2. *Phytoecia* (*Phytoecia*) *pustulata murina* Marseul, 1870
48.3. *Phytoecia* (*Phytoecia*) *pustulata pulla* Ganglbauer, 1886
49. *Phytoecia* (*Phytoecia*) *virgula* (Charpentier, 1825)
50. *Phytoecia* (*Pseudocoptosia*) *cinerascens* Kraatz, 1882
51. *Phytoecia* (*Pseudocoptosia*) *eylandti* Semenov, 1891
52.1. *Phytoecia caerulea caerulea* Scopoli, 1772
53. *Phytoecia nivea* Kraatz, 1882
54.1. *Phytoecia rufipes rufipes* Olivier, 1795
55.1. *Phytoecia virgula virgula* Charpentier, 1825

Triba 15. Saperdini Mulsant, 1839

56. *Saperda* (*Comppsidia*) *populnea* (Linnaeus, 1758)
57. *Saperda* (*Saperda*) *similis* Laicharting, 1784

Triba 16. Tetropini Thomson, 1860

58. *Tetrops* (*Mimosophronica*) *bicoloricornis* Kostin, 1973
58.1. *Tetrops* (*Mimosophronica*) *bicoloricornis ferganensis* Danilevsky, 2018
59.1. *Tetrops* (*Mimosophronica*) *elaeagni shapovalovi* Danilevsky, 2018
60. *Tetrops* (*Mimosophronica*) *hauseri* Reitter, 1897

Kenja oila 4. LEPTURINAE Latreille, 1802

Triba 17. Lepturini Latreille, 1802

61. *Stictoleptura cardinalis* (Daniel & Daniel, 1898)
62. *Xenoleptura hecate* (Reitter, 1896)

Triba 18. Rhagiini Kirby, 1837

63. *Gnathacmaeops pratensis* (Laicharting, 1784)
64. *Stenocorus* (*Stenocorus*) *minutus* (Gebler, 1841)
65. *Stenocorus* (*Toxotochorus*) *validicornis* Woodpecker, 1900
65.1. *Stenocorus* (*Toxotochorus*) *validicornis mediocris* Danilevsky, 2012
65.2. *Stenocorus* (*Toxotochorus*) *validicornis univittatus* Reitter, 1913

Kenja oila 5. PRIONINAE Latreille, 1802

Triba 19. Prionini Latreille, 1802

66. *Lobarthron balassogloi* (Jakovlev, 1885)
67.1. *Lobarthron balassogloi brevispinum* (Jakovlev, 1885)
68. *Mesoprionus angustatus* (Jakovlev, 1887)

69. *Microarthron komaroffi* (Dohrn, 1885)
70. *Pogonarthron tschitscherini* (Semenov, 1889)
70.1. *Pogonarthron tschitscherini brunnescens* Danilevsky & Shapovalov, 2017
70.2. *Pogonarthron tschitscherini pallidus* Danilevsky & Shapovalov, 2017
71. *Polylobarthron margelanicum* (Thery, 1896)
72.1. *Psilotarsus brachypterus aralensis* Danilevsky, 2000
72.2. *Psilotarsus brachypterus hemipterus* (Motschulsky, 1845)
73. *Psilotarsus heydeni* (Ganglbauer, 1888)
74. *Psilotarsus hirticollis* Motschulsky, 1860
74.1. *Psilotarsus hirticollis auliensis* Danilevsky, 2000
75. *Psilotarsus turkestanicus* (Semenov, 1888)

Kenja oila 6. SPONDYLINAE Audinet-Serville, 1832

Triba 20. Tetropini Portevin, 1927

76. *Tetropium staudingeri* Pic, 1901

Umumiy holda O‘zbekiston hududida uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlarning 6 kenja oila, 20 triba, 34 urug‘ va 23 kenja urug‘ga mansub 68 tur hamda 18 kenja turi uchrashligi qayd etildi. Kenja oilalar kesimida qaralganda Lamiinae kenja oilasi O‘zbekistondagi umumiy uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlarning 40,7% ini tashkil etmoqda (1-jadval). Undan keyin esa Cerambycinae kenja oilasi 25 tur va 1 kenja tur (30,2%) bilan ikkinchi o‘rinni egallamoqda. Qolgan 4 kenja oila – Prioninae, Lepturinae, Apatophyseinae va Spondylinae mos ravishda 14 (16,3%), 7 (8,1%), 3 (3,5%) va 1 (1,2%) tur va kenja turlarni o‘z ichiga oladi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistonda uchrovchi Cerambycidae oilasi vakillarining kenja oilalar kesimida turli taksonlarda taqsimlanishi

	Triba	Urug‘	Kenja urug‘	Tur	Kenja tur
Apatophyseinae	1	1	2	3	0
Cerambycinae	9	15	6	25	1
Lamiinae	6	8	13	26	9
Lepturinae	2	4	2	5	2
Prioninae	1	5	0	8	6
Spondylinae	1	1	0	1	0
Jami:	20	34	23	68	18

XULOSA

Olingan natijalardan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlari tur soni va tarqalish ko‘lami bilan o‘ziga xos bo‘lib, ularning taksonomik holati bo‘yicha doimiy moniroting ishlarini olib borish zarur hisoblanadi. O‘zbekiston uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlarining tur soni va tarkibini aniqlash, ular orasidagi dominant zararkunanda turlar sonini nazorat qilish uchun muhim kalit vazifasini bajarishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yaxontov V.V. O‘rta Osiyo qishloq xo‘jaligi o‘simliklari hamda mahsulotlarining zararkunandalari va ularga qarshi kurash. –Toshkent: O‘rta va oliy maktab, 1962. – 696 b.
2. Karpiński L., Szczepański W.T., Plewa R., Walczak M., Hilszczański J., Kruszelnicki L., Łoś K., Jaworski T., Bidas M., Tarwacki G. New data on the distribution, biology and ecology of the longhorn beetles from the area of South and East Kazakhstan (Coleoptera, Cerambycidae). ZooKeys, 2018. Vol. 805, – P. 59-126.
3. Kadyrov A.Kh., Karpiński L., Szczepański W.T., Taszakowski A., Walczak M. New data on distribution, biology, and ecology of longhorn beetles from the area of west Tajikistan (Coleoptera, Cerambycidae). ZooKeys, 2016. Vol. 606, – P. 41-64.
4. Rossa R., Goczał J. Global diversity and distribution of longhorn beetles (Coleoptera: Cerambycidae). The European Zoological Journal, 2021. Vol. 88(1), – P. 289-302.
5. Ceballos G., Ehrlich P.R., Barnosky A.D., García A., Pringle R.M., Palmer T.M. Accelerated modern human-induced species losses: Entering the sixth mass extinction. Science Advances, 2015. Vol. 1(5), e1400253
6. Tavakilian G., Chevillotte H. 2022. Base de données Titan sur les Cerambycidés ou Longicornes. Available: http://titan.gbif.fr. Accessed June 2023.\